
Toshloq tumanida “Yangi O’zbekiston-inson qadri ulug’langan yurt” shiori ostida ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar boshlandi!

Tumanimizdagi Nayman Madaniyat markazida poytaxtdan tashrif buyurgan elimiz ardog’idagi madaniyat, san’at namoyondalari, shoir va yozuvchilar karnay-surnay sadolari ostida tantanali kutib olindi.

Bugun tumanimizga O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan artistlar Alisher Turdiyev (Fayz), Dono Boboxonova, O’zbekistonda xizmat ko’rsatgan madaniyat xodimi, shoira Umida Abduazimova, O’zbekiston davlat filarmoniyasi xonandası Ozoda Yorova, estrada xonandalari Sherbek va Kumush hamda “Ma’rifat” targ’ibotchilar jamiyati a’zosi, O’zbekiston davlat jahon tillari universiteti dosenti Olim Toshboyevlar tashrif buyurdilar.

Mehmonlarni Toshloq tuman hokimi Abduqaxxon Djuraboyev kutib oldi.

Tadbirda Yangi O’zbekistonni bunyod etish yo’lida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda erishilayotgan yutuqlar hayotiy misollar orqali sodda va tushunarli tarzda yetkazib berishga harakat qildilar.Tumanimizda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar davom etmoqda.

2022-05-31 16:16:23